



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha, 2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 1 421,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 101,0 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 267,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 181,1 %ni), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 154,0 mlrd. so'mni (91,6 %ni), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 139,9 mlrd. so'mni (101,4 %ni) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 1 421,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan 101,0 %ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasi 81,2 % va yirik korxonalar hissasi 18,8 %ga to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida bo'lib jamiga nisbatan 37,9 %ni yoki 539,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng past ulush Paxtachi tumanida 1,9 % yoki 26,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur hajm 2021- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, 1 154,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan 8,4 %ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 81,2 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kattaqo'rg'on shahrida (99,9 %) va Jomboy (99,0 %), Nurobod (98,8 %), Kattaqo'rg'on (98,8 %), Ishtixon (98,9 %), Narpay (98,4 %), Qo'shrabot (98,6 %) va Payariq (98,8 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yil yanvar

2020- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (107,1 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	1 421,7	101,0	267,7	181,1	1 154,0	91,6
Samarqand shahri	539,3	107,1	251,8	188,4	287,4	77,7
Kattaqo'rg'on shahri	99,1	93,7	0,1	82,7	99,0	93,7
tumanlar:						
Oqdaryo	36,6	98,3	0,7	127,6	35,9	97,9
Bulung'ur	69,1	97,3	1,6	3,7 m.	67,5	95,6
Jomboy	54,1	97,4	0,5	119,4	53,6	97,2
Ishtixon	59,4	97,3	0,7	46,9	58,8	98,5
Kattaqo'rg'on	56,9	95,6	0,7	87,9	56,2	95,7
Qo'shrabot	27,1	99,6	0,4	2,2 m.	26,7	98,9
Narpay	39,8	99,7	0,6	106,0	39,2	99,6
Payariq	64,3	99,4	0,8	101,2	63,6	99,4
Pastdarg'om	81,3	99,2	2,9	72,9	78,4	100,5
Paxtachi	26,6	92,2	0,6	127,4	25,9	91,5
Samarqand	49,9	98,2	1,0	81,9	48,9	98,6
Nurobod	31,9	99,0	0,4	150,9	31,5	98,6
Urgut	144,6	99,4	3,4	137,5	141,2	98,7
Toyloq	41,7	99,2	1,5	3,4 m.	40,2	96,6

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 81,1 %ga o'sdi va 267,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 18,8 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1154,0 mlrd. so'mni va 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 91,6 %ni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,2 %ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Jomboy (99,0 %), Nurobod (98,8 %), Kattaqo'rg'on (98,8 %), Ishtixon (98,9 %), Qo'shrabot (98,6 %) va Payariq (98,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 18,8 %ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (46,7 %), Bulung'ur (2,3 %), Toyloq (3,7 %) va Pastdarg'om (3,6 %) tumanlarida kuzatildi.



SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yil yanvar oyi holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 363,4 ming so'm (2020- yil yanvar oyiga nisbatan 99,1 %ni tashkil etdi) va Kattaqo'rg'on shahrida (92,3 %), Paxtachi (90,7 %), Ishtixon (95,3 %), Bulung'ur (95,5 %), Jomboy (95,1 %) va Kattaqo'rg'on (93,9 %), Nurobod (97,2 %) tumanida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichida kamayish sur'ati kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori Samarqand shahri (982,1 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (1 099,8 ming so'm) va Bulung'ur tumani (367,8 ming so'm), Jomboy tumani (311,2 ming so'm), Urgut tumani (281,8 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




Hudud nomi	Hajm, Ming so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	363,4	99,1
Samarqand shahri	982,1	105,7
Kattaqo'rg'on shahri tumanlar:	1 099,8	92,3
Oqdaryo	228,6	96,4
Bulung'ur	367,8	95,5
Jomboy	311,2	95,1
Ishtixon	232,4	95,3
Kattaqo'rg'on	207,2	93,9
Qo'shrabot	204,7	97,7
Narpay	186,2	98,1
Payariq	255,2	97,3
Pastdarg'om	228,1	97,2
Paxtachi	183,3	90,7
Samarqand	196,4	96,2
Nurobod	210,5	97,2
Urgut	281,8	97,0
Toyloq	205,8	97,0

Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 139,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar oyiga nisbatan 101,4 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 37,0 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 60,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 102,9 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 134,4 %)ni tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 37,0 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 102,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	139,9	101,4	37,0	60,2	102,9	134,4
Samarqand shahri	4,8	98,7	4,6	2,1 m.	0,2	6,8
Kattaqo'rg'on shahri	34,7	112,1	3,3	24,0	31,4	182,7
tumanlar:						
Oqdaryo	9,3	98,8	1,2	28,4	8,1	155,4
Bulung'ur	10,8	99,3	4,0	83,6	6,8	111,9
Jomboy	12,2	98,8	3,7	66,3	8,6	124,8
Ishtixon	7,5	99,4	1,7	50,8	5,8	138,3
Kattaqo'rg'on	10,5	98,3	3,9	82,5	6,6	111,0
Qo'shrabot	3,9	97,5	1,3	72,4	2,6	117,6
Narpay	3,4	98,7	3,2	2,1 m.	0,2	9,7
Payariq	13,7	97,3	4,7	74,8	9,0	115,4
Pastdarg'om	5,3	99,0	0,7	28,9	4,6	155,1
Paxtachi	4,7	97,4	1,0	48,1	3,7	136,8
Samarqand	4,4	93,9	0,1	4,1	4,3	165,9
Nurobod	5,4	98,9	1,9	76,3	3,5	117,0
Urgut	4,7	98,2	1,3	62,5	3,3	126,8
Toyloq	4,6	98,1	0,4	17,6	4,2	162,7

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



0,3
mlrd. so'm

Tuzlamalar



10,0
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



1,5
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

5,0
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



1,7
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

5,7
mlrd. so'm



Tuxum

7,0
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

1,2
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

0,1
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

2021- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 37,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (10,0 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

0,7 mlrd.
so'm



Ziravorlar

3,8
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar oyida, viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 102,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 74,8 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 13,9 mlrd. so'mni, otlar 13,4 mlrd. so'mni, parrandalar 0,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 %ni tashkil etib, 32,9 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 97,3 %ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,0 %lik ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	32,9	97,3	3,3	136,9	29,6	94,3
Samarqand shahri	21,5	95,7	2,8	120,8	18,7	92,7
Kattaqo'rg'on shahri	1,1	100,2	0,0	0,0	1,1	100,2
tumanlar:						
Oqdaryo	0,1	100,6	0,0	0,0	0,1	100,6
Bulung'ur	0,9	135,1	0,3	0,0	0,6	84,7
Jomboy	0,7	101,4	0,0	0,0	0,7	101,4
Ishtixon	0,3	100,5	0,0	0,0	0,3	100,5
Kattaqo'rg'on	0,4	98,7	0,0	0,0	0,4	99,9
Qo'shrabot	0,3	102,1	0,0	0,0	0,3	102,1
Narpay	0,4	100,1	0,0	0,0	0,4	100,1
Payariq	0,5	99,2	0,0	0,0	0,5	99,2
Pastdarg'om	2,5	95,1	0,0	0,0	2,5	95,5
Paxtachi	0,3	125,5	0,1	0,0	0,2	85,2
Samarqand	1,6	95,2	0,04	84,0	1,6	95,5
Nurobod	0,2	99,7	0,0	0,0	0,2	99,7
Urgut	0,8	98,4	0,02	2,2 m.	0,7	97,1
Toyloq	1,3	99,6	0,0	0,0	1,3	99,6

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2020- yil yanvar oyi bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,39 %dan 0,43 %ga ko'paygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 32,9 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 97,3 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 32,7 mlrd. so'm (99,57 %) nodavlat mulk, 0,2 mlrd. so'm (0,43 %), davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Samarqand shahri (0,43 %)ga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	32 884,8	100,0	32743,3	99,57	141,5	0,43
Samarqand shahri	21 517,2	65,4	21375,7	99,57	141,5	0,43
Kattaqo'rg'on shahri	1 091,0	3,3	1 091,0	100,0	-	-
tumanlar:						
Oqdaryo	145,3	0,4	145,3	100,0	-	-
Bulung'ur	904,3	2,7	904,3	100,0	-	-
Jomboy	695,5	2,1	695,5	100,0	-	-
Ishtixon	254,2	0,8	254,2	100,0	-	-
Kattaqo'rg'on	405,8	1,2	405,8	100,0	-	-
Qo'shrabot	297,0	0,9	297,0	100,0	-	-
Narpay	392,1	1,2	392,1	100,0	-	-
Payariq	455,1	1,4	455,1	100,0	-	-
Pastdarg'om	2 546,3	7,7	2 546,3	100,0	-	-
Paxtachi	249,1	0,8	249,1	100,0	-	-
Samarqand	1 620,2	4,9	1 620,2	100,0	-	-
Nurobod	208,3	0,6	208,3	100,0	-	-
Urgut	764,4	2,3	764,4	100,0	-	-
Toyloq	1 339,0	4,1	1 339,0	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 567,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan 97,3 %ni tashkil etdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 120,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 143,5 %ni), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 447,1 mlrd. so'mni (89,5 %ni), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi 268,9 mlrd. so'mni (86,9 %ni) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi 178,1 mlrd. so'mni (93,9 %ni) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yil yanvar

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari yirik korxonalar bo'yicha Samarqand shahrida (144,6 %) va Bulung'ur (739,1 marta), Paxtachi (328,7 marta), Payariq (632 marta) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori ulush Samarqand shahrida (51,2 %) va Kattaqo'rg'on (6,1 %), Toyloq (10,6 %), Samarqand (6,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	567,2	97,3	120,1	143,5	447,1	89,5
Samarqand shahri	290,2	97,3	94,6	144,6	195,7	84,0
Kattaqo'rg'on shahri	10,2	95,1	0,03	117,8	10,2	95,0
tumanlar:						
Oqdaryo	14,1	97,9	0,02	15,8	14,1	98,7
Bulung'ur	20,5	167,4	10,8	739,1 m.	9,7	79,5
Jomboy	9,5	95,3	0,001	14,4	9,5	95,4
Ishtixon	8,4	88,8	0,1	4,3 m.	8,3	88,0
Kattaqo'rg'on	34,8	96,8	0,05	42,8	34,8	97,0
Qo'shrabot	1,1	88,2	0,01	17,7	1,1	91,7
Narpay	4,9	87,4	0,05	15,4	4,8	91,4
Payariq	16,0	103,9	1,9	632 m.	14,1	91,3
Pastdarg'om	26,5	79,8	12,1	69,7	14,3	90,9
Paxtachi	5,2	93,2	0,2	328,7 m.	5,0	90,1
Samarqand	36,1	98,1	0,02	11,5	36,1	98,4
Nurobod	3,8	96,3	0,03	162,7	3,7	96,0
Urgut	25,7	97,6	0,2	2,9 m.	25,5	97,2
Toyloq	60,2	94,3	0,01	0,0	60,2	94,3

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar oyi yakuniga ko'ra, 447,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar oyiga nisbatan 89,5 %ni, jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 78,8 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda yuqori ulush Samarqand (100,0 %), Urgut (99,4 %), Oqdaryo (99,8 %), Kattaqo'rg'on (99,9 %), Jomboy (100,0 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (99,7 %) bo'lgan. Eng past ulush esa Bulungur (47,4) va Pastdarg'om (54,2 %) tumaniga to'g'ri keldi.

